

уйғунлашган Шарқона таълим ва тарбия ҳамма даврлар учун “комиллик дастури” бўла олади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Точный перевод дневника его светлости эмира Бухарского. Представляет И. Гаспринский из Бахчисарай. Казань, 1894.
2. Жамолова Д. Бухоро амири Абдулахадхон ва унинг сиёсий фаолияти. Ўзбекистон тарихи, №1. 2018.
3. Дониш А. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Ёўлдошев Қ. таржимаси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2014.
4. Ole Olufsen. The Emir of Bokhara and his country. Gyldendal, Nordisk forlag. Copenhagen, 1911.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH**

**Nizomiy nomidagi TDPU**

**“Maktabgacha ta’lim” fakulteti**

**“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi”**

**kafedrasi o’qituvchisi M.Q.Razzoqova**

Bolalarning avloddan – avlodga o’tib kelayotgan xalq ma’naviy boyligini meros qilib olishlari, ularning kelgusida o’z zamonasining ilmiy yutuqlarini o’zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg’or, odob, ahloq va estetik ideallarga qanchalik sodiq bo’lib voyaga yetishlariga ota – ona va tarbiyachilar mas’uldirlar. Bugungi kunda ma’naviy - ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko’tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish muammosiga alohida e’tibor qilinmoqda. O’zbekiston mustaqilligi davrida jamiyatimiz ma’naviy – ahloqiy hamda ma’rifiy ishlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlariga aylandi.

Hozirgi davrda ahloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etish ko’p jihatdan jamiyatning va undagi har bir shaxsning ahloqiy darajasiga bog’liqdir.

Axloqiy tarbiya – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga ahloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning ahloqiy his-tuyg’u va sifatlarini, ijobiy munosabatlarda xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Pedagogika fani bolaning ahloqiy rivojlanishida tarbiya va ta’limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruxiyatga oid juda ko’p tadqiqotlar natijalarining ko’rsatishicha,

maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichlar. Xuddi mana shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim –tarbiya ta'sirida shaxsning ahloqiy sifatleri shakllana boshlaydi, 6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib, bola tevarak –atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan ahloq qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo'lib qoladi, shuning uchun bolalarga ilk yoshidan boshlab ahloqiy tarbiya berib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning ahloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning ahloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikr mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi. Shunda ular har bir xatti –harakatini ongli ravishda, ahloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart –sharoitlari quyidagilardan iborat:

1.Axloqiy tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ya'ni pedagog va bolalarning o'zaro munosabatlari bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan qarashga asoslanishi kerak.

2.Pedagogik jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda bolaning o'zi ijobiy odatlarni egallab borsin, salbiy xususiyatlarni yo'qotishga intilsin.

3.Axloqiy tarbiya bolaning ijobiy xulqiga asoslanib amalga oshirilishi zarur.

4.Bolani tarbiyalash uchun yaxshi hissiy muhit yaratish kerak. Jazolash bilan ham, qo'rqitish bilan ham bolada ijobiy ahloqiy sifatni tarbiyalab bo'lmaydi.

5.Bolada ahloqiy odatlarni shakllantirish uchun undagi ma'lum odatlarga asoslanish kerak.

6.Odatdagi harakatlar ijobiy natija berguncha mashq qildirib boriladi.

7.Bolaga ta'sir etishda uni tarbiyalashda ishtirok etuvchi hamma shaxslar o'rtasida birlik bo'lishi kerak.

8.Ijobiy odatlarni yuzaga keltiruvchi qiziqarli faoliyatlarni tashkil etish lozim.

**Xo'sh, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tushunchasiga nima ko'proq mos keladi va nima uni qiziqtirishi va hayajonlantirishi mumkin?**

Dastavval, bu u tug'ilgan va yashayotgan joylardir. Jona-jon ona tabiat vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go'zalligi bilan zavqlanish. Tabiat dunyosiga ehtiyokorona munosabatda bo'lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o'zgartiruvchilik rolini tushunishigacha – bularning hammasi jonajon o'lkaga muhabbatni shakllantirishning manbalaridir. Bolalikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorqin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi, chunki uning obrazlarida vatan o'z ifodasini topgan bo'ladi. Odam vatanga bo'lgan muhabbatini o'zi tug'ilgan va o'sgan oilasi, bolalar bog'chasi va maktabi, bolalar bilan o'ynagan o'yinlari va joylari bilan bog'laydi.

Bolalarning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida nafosat tarbiyasi asosiy o'rin tutadi. Tasviriy san'at asarlaridan zavqlana olish, musiqani tinglash va undan shodlana olish qobiliyatlari bolalarda ilk yoshdan rivojlantirib boriladi. Nafosat tarbiyasi mazmunining asosini chiroyli rasmlarni his etish, ulardan zavqlana olish, asosiy ranglarni bilish va farqlay olish, rangli qalamlardan foydalana olish, ular yordamida sodda narsalarni qog'ozda tasvirlay olish, plastilin yoki loydan sodda shakldagi narsalarni yasay olish, musiqani tinglab zavqlana olish, ayrim Milliy cholg'u asboblarini bilish, musiqa ohangiga mos ravishda raqsga tushish va qo'shiq ayta olish kabilarga o'rgatishni tashkil etadi.

Axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy hatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda ko'rishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq atvorini boshqarish qobiliyati yoki tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqni ongli bajarish, daf'atan asabiylashib ketishiga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak o'qituvchi xulq-atvoridagi ixtiyoriylikning rivojlanish asosini maktabgacha tarbiya yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'yso'nuvchilari tashkil qiladi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning tarkib topishida, shuningdek katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq atvoridagi mustaqillik uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash davr talabi va ijtimoiy-ta'limiy zaruriyat bo'lib, bunday yondashuv pedagogik jarayonning ijodiy xususiyat kasb etishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonga texnologik yondashuv esa, mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda yordam beradi.

An'anaviy ta'lim esa mashg'ulotlarning bir xil, standart shaklda tashkil etilishini ifodalaydiki, bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarning erkin, ijodiy fikrlash imkoniyatlari cheklanib, ular tomonidan tayyor bilimlar sust tinglovchilar sifatida o'zlashtiriladi. Bolalarda mehr – shafqat, muruvvat, kattalarga hurmat hislatlarini tarbiyalash o'zbek oilalarida juda qadimdan mavjud. Uning barcha jihatlari ijtimoiy hayotida namoyon bo'lib kelgan va ma'naviy qadriyat sifatida avloddan avlodga o'tib kelmoqda Istiqlol yillarida ushbu qadriyatlar o'zining barcha qirralarini ko'rsatdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy

mustaqillik ruhida tarbiyalash ularda ma'naviy – axloqiy xulq ko'nikmalarini, milliy g'urur, Milliy ong, o'z – o'zini anglash, vatanparvarlik, tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. “Ilk qadam” o'quv dasturi 2018y
3. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, A'zamova N, Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” Tafakkur 2019 Darslik
4. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004

## **ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДИЙ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Ш. Рахматуллаева ҚарДУ**  
**Г. Саломова ҚарДУ магистри**

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ҳаётимизнинг барча жабҳаларида бўлганидек, таълим тизимида ҳам турли ислохотлар амалга оширилди. Бунда таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишга, хусусан, она тили таълимини ўқитишда замонавий талабларга жавоб берадиган усул ва воситалардан унумли фойдаланишга, ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий фикрлаш қобилиятларини шакллантириш муаммоларини ҳал қилишга алоҳида эътибор қаратилди. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ёшларимизни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз<sup>1</sup>” –деган даъватлари таълимнинг сифати ва унинг самарали ташкил этилишига, айниқса, бошланғич синфлардан бошлаб ўқувчиларни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга шахс сифатида тарбиялашда асос бўлиб хизмат қилади.

Ижодий фикрлаш ўқувчиларни мустақилликка ундайди, ақлий ишларни бажаришга қизиқтиради, уларни ижод қилишдан завқланишга ўргатади. У таълим

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - 56 Б.